



**“XAMSA” BERGAN HAYRAT HAQIDA
(SIROJIDDIN SAYYID IJODI MISOLIDA)**

Tirkasheva Sobira

ToshDO’TAU

Masofaviy ta’lim kafedrasи o’qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15338561>

Annotatsiya: Sirojiddin Sayyid – zamonaviy o’zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri bo‘lib, uning ijodida Alisher Navoiy an’alarining yangi talqinlari o‘z ifodasini topgan. Shoir mumtoz adabiyot ruhi va tamoyillarini zamonaviy she’riyatga moslashtirib, uni yangi mazmun va badiiy ifoda vositalari bilan boyitgan. U Navoiyning ma’naviy-ma’rifiy merosini o’rganish bilan birga, uni o‘z asarlarida poetik shakl va g’oya jihatdan yangicha talqin etadi. Sirojiddin Sayyidning g’azal va she’riy asarlarida Navoiyga xos badiiy obratzalar, falsafiy mushohadalar va mumtoz lirik an’analari davom ettirilgan. Ayniqsa, ishq, komil inson g’oyasi va ma’naviy poklik kabi mavzular shoir ijodida alohida o’rin egallaydi. Biroq u bu qadriyatlarni faqat takrorlamay, balki bugungi davr nuqtayi nazaridan yondashib, yangi zamonaviy ruh va uslubda aks ettiradi. Maqolada Sirojiddin Sayyid ijodining Navoiy merosi bilan bog’liqligi, shuningdek, uning yangicha badiiy uslub va ifoda vositalari orqali qanday rivojlantirilgani tahlil etiladi. Shoir mumtoz an’analarni saqlab qolgan holda, ularni bugungi o’zbek she’riyatining yangi bosqichiga olib chiqishda muhim rol o’ynaganligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Sirojiddin Sayyid, “Xamsa”, “Xamsa hayratlari”, g’azal, na’t, maqolat, mumtoz lirika.

Annotation: Sirojiddin Sayyid is one of the prominent representatives of modern Uzbek literature, whose work embodies new interpretations of the traditions of Alisher Navoi. The poet adapted the spirit and principles of classical literature to modern poetry, enriching it with new content and means of artistic expression. Along with studying Navoi’s spiritual and educational heritage, he interprets it in a new way in terms of poetic form and idea in his works. In Sirojiddin Sayyid’s ghazals and poems, Navoi’s artistic images, philosophical observations, and classical lyrical traditions are continued. In particular, themes such as love, the idea of a perfect person, and spiritual purity occupy a special place in the poet’s work. However, he does not just repeat these values, but approaches them from the perspective of today, reflecting them in a new modern spirit and style. The article analyzes the connection of Sirojiddin Sayyid’s work with Navoi’s legacy, as well as how it was developed through new artistic styles and means of expression. It is based on the fact that the poet, while preserving classical traditions, played an important role in bringing them to a new stage of modern Uzbek poetry.

Keywords: Alisher Navoi, Sirojiddin Sayid, "Hamsa", "Hamsa hairatlari", ghazal, not, article, classical lyrics

Аннотация: Сироджиддин Сайид – один из выдающихся представителей современной узбекской литературы, в которой нашли отражение новые интерпретации традиций Алишера Навои. Поэт адаптировал дух и принципы классической литературы к современной поэзии, обогатив ее новым содержанием и средствами художественного выражения. Наряду с изучением духовно-просветительского наследия Навои, он также переосмысливает его в своих произведениях в поэтической форме и идеях. Газели и поэтические произведения Сироджиддина Сайида увековечивают художественные объекты, философские размышления и классические лирические традиции Навои. В



частности, особое место в творчестве поэта занимают такие темы, как любовь, идея совершенного человека и духовная чистота. Однако он не только тиражирует эти ценности, но и отражает их в новом современном духе и стиле, подходя к ним с современной точки зрения. В статье анализируется связь творчества Сироджиддина Сайида с наследием Навои, а также то, как оно развивалось через новый художественный стиль и средства выразительности. Она основана на том, что поэт, сохраняя классические традиции, сыграл важную роль в выводе их на новый уровень современной узбекской поэзии.

Ключевые слова: Алишер Навои, Сироджиддин Сайд, «Хамса», «Хамса хайратлари», газель, нот, артиклет, классическая лирика.

O’zbek mumtoz adabiyotida hazrat Alisher Navoiy “so‘z mulki,” “so‘z xazinasi ila “ulkan bir bog‘u bo‘ston, yirik bir ummon yaratdi. Bu bog‘u bo‘stonning mevalari va ummonning suvlaridan barcha adabiyot ixlosmandlari, ko‘plab ijodkoru shoirlar bahramand bo‘ishdi. Bu bahramandlik bugunga qadar davom etib kelmoqda. Ana shu shoirlar orasida Sirojiddin Sayyid o‘zini hazrat Alisher Navoiyning munosib shogirdi ekanligini, Navoiydan ilhomlanganligini bir qator ijod namunalarida faxr bilan ta’kidlaydi. Bu fikr isbotini shoirning quyidagi misrasida ko‘rishimiz mumkin:

O‘zim tuproqmanu pirim-samoviy,

Mening dorulfununimdir Navoiy.

Alisher Navoiyning ustoz sifatida tilga olinishi boshqa ko‘plab ijodkorlarda uchraydi, ammo bu borada ularni orasida Sirojiddin Sayyiddagi o‘ziga xos ifoda birortasida uchramaydi, shuningdek Navoiyni yosh avlodga aniqroq, yaqqolroq tasvirlab berish uchun ham o‘ziga xos o‘xshatish, ta’riflarni izlaydi va kashf etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi:

Bir ummonkim, ibtidosi yo‘q,

Yo‘qdir uning so‘nggi-Navoiy.

O‘tgan sayin ildamlab ketgay,

Borgan sayin yangi Navoiy

Sirojiddin Sayyid “Mir Alisher” she’rida Alisher Navoiy dahosiga kengroq nuqtai nazar bilan yondashadi, ya’ni tiriklikning, hayotning mazmun mohiyatini buyuklikning mazmun mohiyatini, belgilarini Navoiyda ko‘radi va Navoiy nomi bilan bog‘laydi. Bunga quyidagi misralar yaqqol misol bo‘la oladi:

Tiriklikning bongi Navoiy,

Buyuklikning rangi Navoiy.

Alisher Navoiy butun turkiy xalqlar uchun bayroq, ularning qorong‘i kechasini yoritguvchi ulkan manbadir:

Bir yorishdi zim-ziyo olam,

Turkiylarning tongi Navoiy.



Sirojiddin Sayyid Alisher Navoiyning ijodini o‘zbek mumtoz adabiyotimizning eng nodir, bitmas-tuganmas xazinasi ekanligini aytib, Navoiy an’analarining munosib vorisi sifatida shunday yozadi:

Navoiyda “Nahr ul –hayot”,
Beruniyni bergen Qiyot.
Qoraqalpoqdan to Hiro
Esar Jayhun shamollari.
Senda yo‘rgaklandi qanchalar adib,
Ne-ne shoirlarning tilagi bo‘lding
Ma’rifat tarqatib, ziyo tarqatib,
O‘zing ham yurtning bir bo‘lagi bo‘lding
Hazrat Navoiyning abadiy yodi,
“O‘zbekiston adabiyoti”...

Alisher Navoiyning buyuk “Xamsa” asaridan ilhomlangan Sirojiddin Sayyid o‘zining ”Xamsa Hayratlari” dostonini yaratdi. Shoirning; “Alisher Navoiy bobomizning ijodi boshdan oyoq hayrat va san’atdan iborat. So‘z hayratti va so‘z san’ati, Sharq mumtoz she’riyatining eng kichik janri sanalmish qit’adan tortib, u xoh ruboiy, xoh tuyuq bo‘lsin, g‘azal yoki qasida, debocha va yo doston bo‘lsin, yoinki nasriy yo‘sinda bitilgan maktubotmi-mutolaaga kirishgan zukko o‘quvchining yuksak so‘z san’atidan hayratlanmay iloji yo ‘q” – degan e’tirofidan uni Navoiydan qanchalik ilhomlanganini bilish mumkin. [Sirojiddin Sayyid, 2019:86]

“Xamsa Hayratlari” da shoir o‘zining “Hayrat ul-abror” dan olgan hayratlarini, ko‘nglidan kechganlarini nazmiy yo‘sinda bayon etgan. Hazrat Alisher Navoiyning “Hayrat ul abror” dostoni debochasining hamd qismida quyidagi misralar keltirilgan:

Ey Sanga mabda’da abaddek azal,
Zoti qadiming abadiy lamyazal.
Ne bo‘lub avalda bidoyat Sanga,
Ne kelib oxirda nihoyat sanga.
Avval O‘zung oxiru mobayn O‘zung,
Borchag‘a xoliq borig‘a ayn O‘zung.

Ulki yoq anga bidoyat-sen o‘zing,
Ulki-yo‘q anga rivoyat sen o‘zing.
Sen o‘zungsan ul abaddin ham azal,
Ul azaldin ham iborat sen O‘zung.

Navoiyda ham Sirojiddin Sayyidda ham dostonning boshlanishi Allohga hamd bilan boshlanib, olamdagи har bir zarra unga hamd aytadi,insonning yaratuvchisi



yagonaligi quyoshdek ma'lum, ya'ni Allohning yagonaligi azalni ham abadni ham Alloh yaratguvchidir degan haqiqatlar yoritiladi.

Odami ersang demagil odami,

Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. (Alisher Navoiy 13-maqolat)

Bir dam ulus mehnatidin kom yo‘q,

Bir nafas el javridin orom yo‘q.

(Alisher Navoiy 20-maqolat)

El bolasi bor yo‘g‘i shul el bila,

Ko‘ngli bahoru yo‘ligul bila.

Neki bo‘lur bo‘lgusi ul el bila

El bila bo‘l, el bila bo‘l, el bila.

Dilni faqat el g‘ami-la tig‘lag‘il,

O‘zni emas, el g‘amini ilg‘ag‘il.

Yig‘lasa el el bila sen yig‘lag‘il,

Elni tani, elni degil, elni bil. (Sirojiddin Sayid)

Alisher Navoiyning ushbu falsafiy misralaridagi fikrlari shoir Sirojiddin Sayyidning dostonidagi tasvirlar bilan hamohang. Darhaqiqat, inson faqat o‘zni demasdan el, xalq bilan uning g‘ami bilan yashamog‘i, xalqqa manfaati tegishi darkor, agar elga foydasi tegmasa, haqiqiy insonparvar bo‘lmaydi.

Har bir inson uchun eng mehribon, eng g‘amxo‘r hattoki jonlarini berishga tayyor bo‘lgan zotlar borki, ularga har qancha ta’rif berishga qalam ojizlik qiladi, shu o‘rinda Hazrat Navoiyning quyidagi baytidagi fikrlar juda muhim:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,

Jismni qil sadqa ono boshig‘a

Ikki jahoningga tilarsan fazo,

Hosil et ushbu ikkisidin rizo.

Tun-kununga aylagali nurfosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

Shoir Sirojiddin Sayyidning dostonida esa, ota-onaga o‘ziga xos tarzda ta’rif berilgan:

Azaldan toshbag‘ir bu ko‘hna korgoh,

Odamzod mehrga qachon qonadir?

Ham mehridaryoyu ham mehrgiyoh

Ota-onadir ul, ota-onadir.

Senga shu davlatni etmishdir ato,

Jannat keyin bo‘lmas-jannat hozirdir.

Otang rozidir gar-rozidir Xudo,



Onang rozi bo‘lsa-Xudo rozidir.

Xulosa qilib aytganda, Sirojiddin Sayyid Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridan hayratlanib, “Xamsa Hayratlari” dostonini yaratdi. Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz adabiyot vakillarining ijodini davom etishini va yangilanishini kuzatamiz, ya’ni buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hofiz Sheroziy, Atoyi, Mavlono Lutfiy, Furqat, Avaz O‘tar kabi so‘z salaflarining g‘azallariga muxammaslar bog‘lab, o‘zining ularning munosib shogirdi, so‘z va qalam tebratish bobida ularning davomchi avlodlaridan biri ekanligini isbotlab berdi.

Bizni izlamangiz nay nolasidan,
Rumiyo Hofizning taronasidan.
Izlamang Bedilning butxonasi yo
Hayyomning yopilmas mayxonasidan
“Bo‘ston”, “Guliston” dan izlamang bizni,
Va yo ohnamayu “Shohnoma”sidan
Qasr ko‘rmadik biz ko‘rkam, munosib
“Xamsa”ning nurafshon koshonasidan
Bizni izlaganlar bizni izlasin,
Hazrat Navoyning ostonasidan.

Sirojiddin Sayyid ijodida Navoiy an'analarining davom etishi tadrijiy va uzlucksiz jarayon bo‘lib, bu yo‘nalish shoir ijodining nurli sahifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy Hayrat ul-abror –Toshkent.: 2020-yil
2. Ashurova G. Mustaqillik davri adabiyotida Navoiy obrazinig badiiy talqini. Monografiya. – Toshkent.: 2021-yil
3. Sirojiddin Sayyid So‘z yo‘li. – Toshkent.: 2008-yil
4. Sirojidin Sayyid Xamsa Hayratlari – Toshkent.: 2019-yil
5. Sirojiddin Sayyid G‘azal daftari– Toshkent.: 2019-yil